



**UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA
IJTIMOIY – GUMANITAR FANLARNI
O‘QITISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI**

**Urganch davlat pedagogika
Instituti Milliy g‘oya va falsafa
Kafedrası o‘qituvchisi
DJumaniyozova Maryamjon
maryamjonmahmudova@gmail.com**

**Madrimova Guli Sanjarbekovna
UrDPI Milliy g‘oya ma‘naviyat
Asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi 1-bosqich talabsi
Gulimadrimova36@gmail.com**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Uchinchi renessans poydevorini yaratishda ta‘limning ahamiyati, ta‘lim jarayonida tarbiyaning o‘rni va uchinchi renessans poydevorida ijtimoiy- gumanitar fanlarning ahamiyati va o‘rni haqida ma‘lumotlar beriladi.

Аннотация:

В данной статье представлена информация о значении образования в создании фундамента третьего ренессанса, роли образования в образовательном процессе, а также о значении и роли социальных гуманитарных наук в фундаменте третьего ренессанса.

Kirish so‘z:

Uchinchi renessans, ta‘lim, tarbiya, ijtimoiy – gumanitar fanlar.

Ключевые слова:

Третий ренессанс, образования, воспитание, социальные гуманитарные науки.

Renessans (fransuzcha-“uyg‘onish”) bu atama dastlab Italiyadagi madaniy- ma‘naviy yuksalishga nisbatan qo‘llanilgan. Bizning mamlakatimiz tarixida ham bir emas ikkita, nafaqat o‘tmishida ulkan iz qoldirgan, balki jahon tamadduniga katta ta‘sir ko‘rsatgan o‘ziga xos uyg‘onish, yani renessanslarga makon bo‘lgani va bugungi islohotlar natijasida yangi uyg‘onish davri ro‘y berishi muqarrarligi



haqidagi tarixiy-ilmiy manbalar, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslarga tayanib "Uchinchi renessans poydevorini yaratish" g'oyasi keng tarqaldi. "Uchinchi renessans poydevorini yaratish"- Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan asoslab berilgan, bugungi kundagi islohotlar va yangilanishlarning eng ustuvor yo'nalishi va maqsadlarini lo'nda v yaxlit ifodalaydigan ulug'vor g'oya. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugun biz ham tanti, sabr-qanoatli va mehnatkash xalqimiz bilan birga ulug'vor maqsadlarni belgilab, marrani baland olmoqdamiz. Oldinda bizni ulkan vazifalar va katta imkoniyatlar kutmoqda, ortimizda tog'dek tayanch va suyanch bo'lib turgan ko'pmillatli xalqimiz qhayot yo'llarida to'g'ri yo'l ko'rsatadigan mo'tabar nuroniylarimiz, hech kimdan kam bo'lmagan azmu shijoatli yoshlarimiz bor. O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilish amaliyoti tobora kengayib bormoqda. Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, yutuqlarni yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellekt mulkni ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. 2020-yilning 12-oktyabr kuni Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan yig'ilish "Intellektual mulkni himoya qilish Uchinchi renessans davri uchun ishonchli poydevor bo'lib xizmat qiladi" degan mavzuga bag'ishlangani ham bejiz emas. Uchinchi renessans poydevorini yaratishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati va o'rni katta. Insoniyat hayotida har bir kishining o'z o'rnini topishi, tafakkurini shakllantirishda ijtimoiy- gumanitar fanlarning qo'shadigan hissasi va ta'sir darajasi nihoyatda yuqori hisoblanadi. Ijtimoiy -gumanitar sohaning boshqa sohalardan asosiy farqi insonda insonga, jamiyatga,davlatga bo'lgan munosabatini shakllantiradi, hamda voqelikni idrok etishga oid mulohaza yuritishga chorlaydi. Ijtimoiy -gumanitar fanlar nafaqat o'quvchi, talabalar, tadqiqotchilar balki jamiyatning barcha a'zolarida insoniylik, axloqiylik, halollik, ezgulik kabi asl insoniy sifatlarni shakllantiradi va amalda namoyon qiladi. Ko'pchilikning nazarida ijtimoiy -gumanitar soha chegarasi yo'q, foydasiz,aniq bo'lmagan, murakkab tizim. Aslida esa, haqiqat shuki, g'oya sog'lom bo'lsa, o'z obyektiga to'g'ri yo'naltirilsa kutilgan natijasini bermasdan qolmaydi. Ijtimoiy-gumanitar sohaning murakkabligi bu uning serqirraligi, shuningdek ushbu sohaning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ta'siridadir. Alohida ta'kidlash kerakki, ijtimoiy-gumanitar soha bu shunchaki



xohish istak emas, balki real zaruratidir. Ayniqsa, hozirgi davrda bu zaruratga talab kun sayin oshmoqda. Texnika asrida globallashuv ta'siri va raqamlashtirish jarayonlari faollashishi natijasida inson insondan uzilib qolganligi, o'z ehtiyojlarini elektron resurslar hisobiga qondirayotganligini guvohi bo'lyapmiz. Ijtimoiy-gumanitar fanlar butun jamiyatga mas'ul va javobgar pozitsiyani egallaganligi bilan alohida mavqega ega hisoblanadi. Bizning nazarimizda ijtimoiy-gumanitar sohaning aniq formulasi mavjud.

Bu: sog'lom g'oya + to'g'ri ijro + obyektning to'g'ri yo'naltirilganligi = Teng g'oyadan ko'zlangan maqsadning natijasiga aylanishi . Bu yo'lda asosiy tamoyillar: xayrixohlik, hamjihatlik, hamkorlik, safarbarlik, bunyodkorlik va albatta natijadorlikdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak , ta'lim va tarbiya qushning ikki qanoti singari, binobarin, hozirgi makon va zamonda uning bir qanotini sindirib, yuksak parvoz etib bo'lmaydi. Har millatda o'rnak olsa arziydigan ulkan ma'rifiy va madaniy meros mavjud ekan, uni umumiy mulkka aylantirish darkor. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishamiz

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://oyina.uz/uz/teahause/2435>
2. <https://yuz.uz/uz/news/uchinchi-renessans-poydevori-sifatli-ta'lim-tarbiyaga-tayanadi>.